

KASABA UYUSHMALARI TASHKILOTLARI

Mirayeva Farangiz Shukurjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası,

Sotsiologiya yo'nalishi, 3-bosqich talabasi.

fmirzayeva947@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18076950>

Annotatsiya. Kasaba uyushmalari tashkilotlari ishchilarining huquqlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta'minlashda juda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada kasaba uyushmalarining tarixiy rivojlanishi, tashkilotlarning vazifalari va zamonaviy sharoitlarda ularning faoliyatining ahamiyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, qonunchiligi, xavfsizlik, sog'liqni saqlash, maoshlar va ish sharoitlarining yaxshilanishi kabi masalalar orqali kasaba uyushmalarining ishchilarga qanday yordam berishi o'rganiladi.

Maqolada, shuningdek, zamonaviy global iqtisodiy o'zgarishlar va kasaba uyushmalarining siyosiy jarayonlarga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Bularning barchasi kasaba uyushmalarining nafaqat ishchilarni himoya qilish, balki jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yanada yoritadi.

Kalit so'zlar: kasaba, uyushma, ishchi, mehnat, ijtimoiy himoya, ishchi manfaatları, mehnat sharoitlari, manfaat, xavfsizlik, kollektiv shartnoma, kasaba uyushmalari, mehnat qonunchiligi.

Kirish. Kasaba uyushmalari – mehnatkashkarni jinsi, diniy e'tiqodi, irqiy va milliy mansubliklaridan qat'iy nazar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va o'z a'zolari manfaatlarini himoya qilish maqsadida birlashtiruvchi ommaviy jamoat tashkilotlari. XVIII asr oxirida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHda o'zaro yordam jamiyatlari sifatida paydo bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarda XIX asrad legallashti¹Kasaba uyushmalari mehnat sharoiti, ish haqi, turmush, madaniyat va shu kabi sohalaridagi manfaatları himoya qilishga dav'at etilgan. 14 yoshga to'lgan va mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan har bir kishi o'z hohishiga ko'ra, o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalarini tuzish, ularga kirish, kasaba uyushmalari faoliyati bilan shug'ullanish va kasaba uyushmalaridan chiqish huquqiga ega.

Eng yirik xalqaro kasaba uyushmalari markazlari: Jahon kasaba uyushmalari federatsiyasi (1945-yil Parijda tuzilgan, 80 dan ortiq mamlakat milliy kasaba uyushma markazlarini birlashtiradi, kasaba uyushma umumiy a'zolarining soni 20-asrning 90-yillarida 213 mln.dan ortiq bo'lgan).

Xalqaro erkin kasaba uyushmalari konfederatsiyasi va Jahon mehnat konfederatsiyasi (1920-yil Vatikan yordamida Xalqaro xristian kasaba uyushmalari konfederatsiyasi nomi bilan tuzilgan, 14 mln.dan ortiq a'zosi bor, qarorgohi Bryusselda)².

O'zbekistonda kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va boshqalar bilan belgilanadi.

Kasaba uyushmalariga mehnat, unga haq to'lash va boshqa tayin masalalarni hal qilish sohasida huquqlar berilgan.

¹ ILO, *Mutual Benefit Societies: Historical Development and Legal Framework*.

² ILO, *World Trade Union Federations*, 1990s data.

Kasaba uyushmalarining ustavleri “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi³ Barcha kasaba uyushmalari teng huquqlardan foydalanadilar. Kasaba uyushmalari o‘z faoliyatida davlat boshqaruv idoralaridan, xo‘jalik idoralaridan, siyosiy partiyalaridan mustaqil, ular oldida hisobdor emas va ular tomonidan nazorat qilinmaydi (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno). Kasaba uyushmalarining huquqlarini cheklaydigan yoki shu huquqlarning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiladigan tarzda har qanday aralashuv man etiladi. Kasaba uyushmalarining o‘z ustavlarida belgilangan maqsadlarga va vazifalarga muvofiq ravishda boshqa mamlakatlarning kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilish, o‘z xohishiga ko‘ra, xalqaro va boshqa kasaba uyushmalari birlashmalariga va tashkilotlariga kirish huquqiga ega.

Kasaba uyushmalarining tuzilishi federalizmga asoslangan. Quyidan yuqorigacha barcha organlar kasaba uyushmalari a‘zolari tomonidan saylangan vakillarining yig‘ilishlari, konferensiyalari va qurultoylarida saylanadi va ular oldida hisob beradi. Kasaba uyushmalari har bir a‘zosi saylashi va kasaba uyushmalari organlariga saylanishi, yig‘ilishlar, matbuot va boshqa vositalar orqali kasaba uyushmalari hamda ma‘muriy organlar faoliyatiga taaluqli masalalarni qo‘yishi mumkin. Kasaba uyushmalari ishlab chiqarish, tarmoq va hududiy prinsiplar asosida tashkil etiladi. Tarmoq va hududiy kasaba uyushmalari a‘zo tashkilotlari sifatida O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasini tashkil etadilar.

Kasaba uyushmalarining asosi – boshlang‘ich tashkilot bo‘lib, kasaba uyushmasi a‘zolarining umumiy yig‘ilishi uning oliy organidir. Boshlang‘ich tashkilot kamida 3 a‘zosi bo‘lgan joylarda tuziladi. Kundalik ishlarni olib borish uchun kasaba uyushmasining guruhlarida guruh tashkilotchisi, 15 tagacha a‘zoni birlashtirgan boshlang‘ich tashkilotda tashkilotchi va uning o‘rinbosari, 15 va undan ko‘p a‘zoni birlashtirgan boshlang‘ich tashkilotda kasaba qo‘mitasi saylanadi.⁴

Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlari sharoitida kasaba uyushmasini tashkiliy jihatdan mustahkamlash, kuch va mablag‘larni birlashtirishga ehtiyoj kuchaydi. Endilikda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi o‘z faoliyatini ijtimoiy sherikchilik asosida qurmoqda va hukumat, vazirliklar, idoralar, viloyat hokimliklari bilan ikki tomonlama hududiy va tarmoq bitimlari tuza boshladi. Mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlash, ishsizlikning oldini olish, mehnatkashlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, mehnatkashlar va ularning oila a‘zolarini sog‘lomlashtirish masalalari bilan shug‘ullanish kasaba uyushmalari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlari bo‘lib qoldi. O‘zbekistonda kasaba uyushmalari a‘zolarining umumiy soni 6.730.545 kishini tashkil etadi (2002-aprel). Bundan tashqari, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga kirmaydigan “Qizilqumkamayobmetallotin” konsernida 65 mingdan ortiq kasaba uyushmasi a‘zosi bor.⁵

Kasaba uyushmasining maqsad va vazifalari. Kasaba uyushmasining asosiy maqsadi:

- O‘z a‘zolarining mehnat sohasidagi huquq va manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish;
- Tarmoq, kasaba uyushmasi harakatining birligi va birdamligini mustahkamlash;

Kasaba uyushmasining vazifalari:

- Xodimlarga amladagi qonu va me‘yoriy belgilangan kafolat va imtiyozlarning so‘zsiz tatbiq etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; Mehnat kodeksi; “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonun; “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun.

⁴ “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.

⁵ O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

- Ichilar hamda ularning birlashmalari bilan birgalikda ijtimoiy sheriklik o'rnatish, muzokaaralar yuritish orqali o'z a'zolariga qonunlarda berilgan imtiyozlardan ko'ra ko'proq imtiyozlar yaratilishi bo'yicha kelishuv va shartnomalar tuzish;

- Kasbi, lavozimi, millat, jinsi, Yoshi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, har bir kasaba uyushmasi a'zosini mehnat qilish va mehnatga adolatli haq to'lanishi, kasbi erkin tanlash, munosib mehnat yoki ta'lim olish sharoitiga ega bo'lish, dam olish, ishsizlikdan himoyalanihga doir huquqlarini himoya qilish;

- Mehnatga haq to'lashning ijtimoiy-adolatli tizimi joriy etilishini nazorat qilish;

- Ish joylarida baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini oldini olinishiga, ishlab chiqarishning zararli va xavfli omillarini bartaraf etilishi, xodimlarga sog'lom va xavfsiz mehnat, qulay maishiy sharoitlar yaratilishini nazorat qilish;

- Sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining sabab va oqibatlarini zarar to'lovlari hisoblanishi va to'lanishini o'rganish, tahlil qilish, sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritirish, chora-tadbirlar ishlab chiqarishda ko'maklashish;

- Xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirishni tashkil qilish, dam olish, sanatoriy – kurortlarda davolanishning samarali bo'lishiga, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, uning ommaviyligini oshirishga ish vaqtida xodimlar gimnastikasi joriy etilishiga ko'maklashish;

- Kasaba uyushmalari a'zolari o'rtasida turizimni rivojlantirish, ular o'rtasida millatlaro, konfessiyalararo totuvlik hamda milliy istiqloq g'oyalarini mustahkamlash, madaniy-ma'naviy, axloqiy-tarixiy, shuningdek umumbashariy qadriyatlarni targ'ibot-tashviq qilish;

- Tarmoq miqyosidagi o'rtacha ish haqi miqdorini tahlil qilish, o'z vakolatlari doirasida ish haqi o'z vaqtida to'lanishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish, ommaviy tarzda ishdan bo'shatib olinayotgan xodimlarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish;

- Xodimlarning to'liq bandligini ta'minlash ishlarini, yashirin ishsizlik va norasmiy bandlik hollarini tahlil qilish, oldini olish yuzasidan tegishli takliflar kiritish, xodimlarning o'z malakasini oshirib borishga ko'maklashish, mehnat bozorida teng raqobatlashish imkoniga ega bo'lmagan shaxslarning ish o'rinlariga joylashtirilishi, muassasalardan ommaviy ravishda ishdan ozod etilayotgan xodimlarga moddiy madad choralari qo'llanilishi ustidan nazorat olib borish;

- Bandlikka ko'maklashish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, yashil ish o'rinlari yaratilishiga ko'maklashish;

- Gender tengligiga erishish, onalik va bolalikni, shuningdek xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish;

- Kam ta'minlangan, ehtiyojmand kasaba uyushma a'zolariga moddiy yordam, hamjihatlik ko'rsatish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash;

- Mehnatda boshqalarga ibrat ko'rsatgan, faol kasab uyushma a'zolarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, bi borada ish beruvchilar va ularning uyushmalari bilan hamkorlik qilish;

- Jamoat shartnomalari va kelishuvlari loyihaalarini jamoatchilik ekspertizadan o'tkazish komissiyalari tashkil etish, ekspertizasidan o'tkazish;

O'z maqsad va vazifalariga erishish yo'lida kasaba uyushmasi davlat va boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Kasaba uyushmasi quyidagi huquqlarga ega:

- Kasaba uyushmasi o'z mablag'iga, yuridik shaxs sifatida bankda hisob raqamiga, muhr, tamg'a va blanklariga ega bo'ladi.

- Kasaba uyushmasi a'zolariga nisbatan, shuningdek, tarmoq muassasa va muassasalarda mehnat qilayotgan xodimlarga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan jamoatchilik nazorati tartibida tekshirib boradi va nazorat qiladi;

- O'z a'zolarining mehnat huqularini himoya qilish maqsadida da'vo arizalari bilan sudga murojaat qilishga, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli;

- Ommaviy axborot vositalarini ta'sis etishimi, belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirishi, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, elektron va internet tarmog'ida o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatishi mumkin;

- Ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi va bu yo'nalishda o'z tuzilmalarini tashkil etishi mumkin;

- Kasaba uyushmasi o'z ramziy belgilarini ta'sis etishi mumkin va uni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

- Faoliyatiga taaluqli masalalar yuzasidan ommaviy va sport-sog'lomlashtirish tadbirlari, seminarlar, tanlovlar, davra suhbatlari, yig'ilishlar, konferensiyalar, rayosatlar, Majlislar va Qurultoylar, shuningdek qonunda taqiqlanmagan tartibda namoyishlar tashkil qilishi mumkin;

- Davlat organlari, xo'jalik boshqaruv organlariga axborot olish to'g'risida so'rovlar bilan murojaat etish, shuningdek, o'z faoliyati to'g'risidagi axborot tarqatish;

- A'zolar manfaatlarini ko'zlagan holda ijtimoiy sheriklik masalalari bo'yicha ish beruvchilar va ukarning birlashmalari bilan maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish haqida tashabbuslar bilan chiqish, bitimlar va shartnomalar tuzish to'g'risida takliflar kiritish, bitimlar va shartnomalarning loyihlarini tayyorlash hamda muhokama qilishda ishtirok etish, imzolash, ijrosi ta'minlanishi ustidan nazorat o'rnatish;

- Tarmoq ijtimoiy-iqtisoiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar, bitimlar hamda shartnomalar, shuningdek boshqa qo'shma hujjatlarning amalga oshirishini ustidan jamoatchilik nazoratini o'tkazish;

- Muassasalarda mehnat sharoitlari va xodimlarning mehnat huruqlari buzilishi aniqlangan hollarda qonun buzilishlarini bartaraf etish yuzasidan ish beruvchilarga taqdimnoma kiritish huquqlariga ega.

Kasaba uyushmasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Kasaba uyushmalarining majburiyatlari:

- Qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etish;

- Kasaba uyushmasi pul mablag'lari hamda mol-mulkdaidan ushbu Ustav talablarini amalga oshirish doirasida maqsadli sarflanishini ta'minlash, o'z faoliyatida moliyaviy intizomga qat'iy amal qilish;

- O'z a'zolari oldida faoliyati bo'yicha hisobdorlik, kasaba uyushmasi a'zolariga o'z mol - mulki va pul mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlash;

- Ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi o'tkazayotgan tadbirlarga erkin kirish imkonini berish;

- Ro'yxatdan o'tkazuvchi davlat organi hamda soliq va statistika organlariga, o'zi a'zo bo'lgan kasaba uyushmalari birlashmalriga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlar taqdim etish;

- O'z faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash;

- Bitimlar va shartnomalar, dasturlar va loyihalar bo'yicha majburiyatlarining bajarish;

- Faoliyati davomida kasaba uyushma a'zolarining manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olinishi ta'minlash;

Kasaba uyushmaning barcha organlarida ish yuritish kollegoal organ tomonidan qaror qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi, xodimlar shaxsiy tarkibiga oid hujjatlar farmoyishlar ko'rinishida yuritish mumkin.

Kasaba uyushmasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.⁶

Xulosa. Kasaba uyushmalari tashkilotlari zamonaviy mehnat bozorida xodimlarning asosiy ijtimoiy tayanchi bo'lib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu tashkilotlar mehnat sharoitlarini yaxshilash, adolatli ish haqi tizimini ta'minlash, mehnat muhofazasi talablariga rioya etilishini nazorat qilishsh hamda xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatga keltirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Demokratik jamiyatda kasaba uyushmalari faolligi nafaqat mehnat munosabatlarining samarali boshqaruvini ta'minlaydi, balki iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, kasaba uyushmalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning imkoniyatlarini yanda kengaytirish hamda jamoaviy himoya mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. “Kasaba uyushmalari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2016.
3. Karimov, Y. *Mehnat munosabatlari va kasaba uyushmalari*. – Toshkent: Universitet, 2020.
4. Abdurahmonova, D. *Ijtimoiy sheriklik va kasaba uyushmalari faoliyati*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Xodjieva, S. “Kasaba uyushmalarining zamonaviy jamiyatdagi o'rni.” // *Ijtimoiy fanlar jurnali*, №4, 2021.
6. International Labour Organization (ILO). *Trade Unions and Social Dialogue*. – Geneva: ILO Publications, 2018.
7. Edwards, P. *Industrial Relations: Theory and Practice*. – London: Wiley-Blackwell, 2013.
8. Bacon, N., & Blyton, P. *The Impact of Trade Unions on Work Conditions*. – London: Routledge, 2016.
9. Gulnoz J. *Sotsiologiya tarixi*.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.–466 b.

⁶ <https://tdmau.uz/kasaba-uyushmasi/>